XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 27-oktabr VII-14-118-7-99-K/25 Nurobod tumani

Nurobod tumani mahalliy byudjeti xarajatlarini 2025-yilda maqbullashtirish natijasida shakllangan qo‘shimcha manbalarni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga asosan 2025-yilda Nurobod tuman mahalliy byudjetining ijrosini sifatli yakunlash va bu borada hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarining kreditorlik qarzlari vujudga kelishini oldini olish shuningdek, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman mahalliy byudjeti xarajatlarini 2025-yilda maqbullashtirish natijasida shakllangan mablag‘larni ilovaga asosan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilariga ish haqi, yagona ijtimoiy soliq va komunal to‘lovlari uchun yo‘naltirilsin.

2. Nurobod tuman mahalliy byudjeti xarajatlarini 2025-yilda maqbullashtirish natijasida shakllangan mablag‘larni hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilariga ish haqi, yagona ijtimoiy soliq va kommunal to‘lovlar uchun yo‘naltirish ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘.Musurmanov) tuman mahalliy byudjetining 2025-yilgi xarajatlar rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Suyarov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



BURANOV MAXSUD ERKINOVICH

Xalq deputatlari Nurobod tumani
Kengashining
2025-yil 27-oktabrdagi
VII-14-118-7-99-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Nurobod tuman mahalliy byudjeti xarajatlarini 2025-yilda maqbullashtirish natijasida shakllangan mablagʻlarni hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilariga ish haqi, yagona ijtimoiy soliq va kommunal toʻlovlar uchun yoʻnaltirish

ming soʻm

№	Hududiy byudjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Jami	Ish haqi	Yagona ijtimoiy soliq	4-guruh
Xarajatlar miqdori, jami		**3 117 000**	**2 274 000**	**563 000**	**280 000**
1	Maktabgacha va Maktab taʻlimi boʻlimi	950 000	600 000	150 000	200 000
	shundan:				
2	Madaniyat boʻlimi	75 000	60 000	15 000	0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	15 000	0	0	15 000
4	Sport boʻlimi	0	0	0	0
5	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	0	0	0	0
6	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	231 000	185 000	46 000	0
7	Irrigatsiya boʻlimi	0	0	0	0
8	Iqtisodiyot va moliya boʻlimlarini saqlash xarajatlari	87 000	70 000	17 000	0
9	Davlat soliq inspeksiyasi	0	0	0	0
10	Hokimiyat	375 000	300 000	75 000	0
11	Hokimiyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	175 000	140 000	35 000	0
	shundan:				0
	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	0	0	0	0
	Axborot-kutubxona markazlari	*175 000*	*140 000*	*35 000*	*0*
12	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	1 224 000	919 000	225 000	65 000
13	Boshqa tashkilotlar	*0*	0	0	*0*